

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

5/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/5 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Ulashova Sevinch Ulash qizi</i> CHIG'ATOY ULUSI BOSHQARUVI TARIXIDAN	8-13
<i>Gulmatov Umarali Xabibulla o'g'li</i> "XITOIY-O'ZBEKISTON-QIRG'IZISTON" TRANSPORT YO'LAGI TASHKIL ETILISHIDA O'ZBEKISTON ISHTIROKINING TARIXIY AHAMIYATI	14-18
<i>Dexkanov Narimon Burxonjonovich</i> ISMOIL SOMONIYNING BOSHQARUV TIZIMI VA QO'SHIN ISLOHOTI	19-22
<i>Saparbayeva Aziza Asror qizi</i> SURXONDARYO HUDUDINING BRONZA DAVRI MANZILGOHLARIDAN ANIQLANGAN ZARGARLIK BUYUMLARI TIPOLOGIYASI	23-28

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Muradullayeva Nafisa Dilmurad qizi</i> XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARI FAOLIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI ZAMONAVIY AXBOROT-KOMMUNIKATSIYALARI TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	29-34
<i>Utkirov Anvar Utkirovich</i> KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA DIVERGENTSIYANI TIZIMLI TASHKIL ETISH TENDENSIYALARI	35-44

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

<i>Madraximov Jahongir Botirjon o'g'li</i> GLOBALLASHUV JARAYONLARINING YOSHLAR MA'NAVIY HAYOTIGA TA'SIRINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI	45-52
<i>Rahmonova Feruza Bahromjon qizi</i> XOTIN-QIZLAR BANDLIGINI TA'MINLASH – TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARDAN ASRASHNING SAMARALI YO'LI SIFATIDA	53-58
<i>Aripova Zulfiyaxon Salijanovna</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FALSAFIY FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MASALALARI	59-64

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> SHE'RIYATDA OBRAZ MUAMMOSI	65-73
<i>Hikmatova Nigina Akmalovna</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AGORONIMLARNING ONOMASTIK KATEGORIYA SIFATIDAGI MILLIY-LISONIY BELGILARI	74-79
<i>Sultanova Xurshida Uktamjanovna</i> PUBLITSISTIK USLUB VA UNING TADQIQI (XURSHID DAVRON IJODI MISOLIDA)	80-86

<i>Asqarova Dilbarxon Asqarjon qizi</i> XRONOLOGIYA VA IJOD: INGLIZ VA O'ZBEK MA'RIFIY DRAMALARINI QIYOSIY O'RGANISH	87-91
--	-------

<i>Sodiqova Baxtigul Ibodullayevna, Mahmudova Nargiza Alimovna</i> J. FAULZNING "KOLLEKSIONER" ROMANIDA RIVOYAT USULLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	92-96
---	-------

<i>Miraxmedova Zilola Erkinovna</i> EVFEMIYA TIL FENOMENI. EVFEMIZMNI O'RGANISH TARIXI	97-101
---	--------

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Абдуолимов Уринбой Худобердиевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ВА УНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ	102-110
--	---------

<i>Алишаев Собир Турсунбоевич</i> СУД ҲУҚМИНИ ЧИҚАРИШ ЖАРАЁНИДА СУД МАЖЛИСИ БАЁННОМАСИНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ВА ИСБОТЛОВЧИ ФУНКЦИЯЛАРИ	111-119
---	---------

<i>Muhammadiyev Bahromjon Qodirjon o'g'li</i> OTALIKNI FAKTINI BELGILASH ISHI (BOTIR QODIROV VA JO'RAYEVLAR OILASI MISOLIDA)	120-124
--	---------

<i>Maxmudova Hurmatxon Muxtorovna</i> KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING DOLZARB MASALALARI TAHLILI: QONUNCHILIK VA AMALIYOT	125-135
--	---------

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Rashidova Oynisa Xusniddin qizi</i> BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNI TAKOMILLASHTIRISH	136-140
--	---------

<i>Bakiyeva Xayotxon Abduganiyevna, Ergasheva Roziya Bahodir qizi</i> DARSLARDA ZAMONAVIY TA'LIM USULLARIDAN FOYDALANISH	141-146
---	---------

<i>Ганнаров Захид Ганнарович</i> ИССЛЕДОВАНИЕ НОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ СИНХРОНИЗАЦИИ ДВИЖЕНИЙ В СИНХРОННОМ ПЛАВАНИИ	147-153
---	---------

<i>Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna</i> TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI	154-159
---	---------

Received: 10 July 2024
Accepted: 15 July 2024
Published: 25 July 2024

Article / Original Paper

A MODERN METHOD OF TEACHING SPIRITUAL AND MORAL VALUES TO FEMALE STUDENTS BASED ON THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE TIMURID PRINCESSES

Qurbonova Dilafruz Toshturdievna

Assistant of the Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute

Abstract. This article describes the modern methodology of teaching spiritual and moral values to female students based on the spiritual heritage of the Timurid princesses.

Basic phrases: spiritual and national traditions, Timurid princesses, moral qualities of female students, moral character, metodika, texnika.

TALABA-QIZLARGA TEMURIY MALIKALAR MA'NAVIY MEROSI ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI O'RGATISHNING ZAMONAVIY USULI

Qurbonova Dilafruz Toshturdiyevna

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu maqolada temuriy malikalar ma'naviy merosi asosida talaba-qizlarga ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rgatishning zamonaviy usuli bayon qilingan.

Tayanch iboralar: ma'naviyat, milliy an'analar, temuriy malikalar, talaba-qizlar axloqiy sifati, axloqiy qadriyat, metodika, texnika.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI5Y2024N23>

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng milliy va diniy qadriyatlarimizni tiklashga, xalqimizning boy an'alariga qaytishini ta'minlashga katta e'tibor berildi. Ayniqsa, davlatimizda oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, yoshlar tarbiyasi sohasidagi qator tashabbuslari ma'naviy hayotimizda katta voqea bo'ldi. Bularning bari jamiyat oldida farzandlar tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish, ularni har jihatdan komil insonlar qilib tarbiyalash vazifasi muhimligini ta'kidladi.

Chindan ham mustaqillik sharofati bilan xalqimizning tarixiy xotirasi qayta tiklana boshladi. Milliy an'analar va ko'hna madaniyatimiz qayta yuz ocha boshladi. Ulug' ajdodlarimizni yod eta boshladik. Ularning ma'naviy merosini o'rganayapmiz.

O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida yangi uyg'onish davri davom etmoqda. Bu uning milliy davlatchiligini tiklanilayotganligida, teran va qadimiy ma'naviyatga qaytayotganligida, jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallaganligida yorqin namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonning yangi tarixini yaratilish davri boshlandi. Biz kelajagi buyuk avlod-ajdodlar vorisimiz, xalqimizning ko'hna va boy tarixini davom ettiruvchilarimiz. Uch ming yilni qamrab olgan milliy davlatchiligimizning insoniyat taraqqiyotida katta o'chmas iz qoldirgan bir

qismi hazrat Amir Temur faoliyatida mujassam bo'lgan. Bu borada nafaqat Amir Temur balki, temuriy malikalarning ham o'rni beqiyosdir.

1994-yilga "Mirzo Ulug'bek yili", 1996-yilga "Amir Temur" yili deb nom berilishi hamda Mirzo Ulug'bekning 600 yillik, Amir Temurning 660 yillik yubileyining jahon miqyosida o'tkazilishi sohibqiron Amir Temur va Temuriylar davriga bo'lgan yuksak ehtirom va shu davrga bo'lgan katta e'tibordan darakdir.

Amir Temur faoliyatida davlatni mustahkamlash, yurt tinchligi, obodonchilik, me'morchilik, dehqonchilikni rivojlanishi bilan birga ilm-fanga ham juda katta e'tibor berilganini ko'ramiz.

Pedagog olim M.Tursunova o'zining "Madrasa barpo etgan malikalar" risolasida Amir Temur sulolasida qator olim shoirlar bilan birga temuriy sulolaga oid malikalar orasida ham yetuk olim, shoir va siyosatdonlar bo'lganligini ta'kidlab, o'z davrining yuksak idrokli, farosatli, tadbirkor va aql-zakovatli ayollaridan biri Saroymulk xonim (1341-1408) ni alohida tilga oladi. "Ziyrak tadbirkor Saroymulk xonim saltanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni hal qilishda o'zining oqilona maslahatlari bilan faol qatnashgan. Ayniqsa, ilm-ma'rifatga alohida e'tibor bilan qaragan. Saroymulk xonim o'z jamg'armasi hisobiga madrasa qurdirish uchun Amir Temurdan ruxsat so'raydi va madrasa qurdiradi. U qurdirgan madrasa XIV asr oxirida va XV asr boshlarida Samarqanddagi madrasalar orasidagi eng ulkani va mahobatlisi bo'lgan. Madrasaga zamonasining yetuk mudarrisarlari tayinlanib, ular tolibi ilmga diniy va dunyoviy ilmlardan dars berganlar. Saroymulk xonim madrasada tahsil oladigan talabalardan muntazam xabar olgan va ularga homiylik qilgan edilar" [1].

Nafaqat ilm-fan balki, tadbirkorligi va qat'iyatliligi bilan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishga o'z hissasini qo'shgan yana bir malika Gavharshod begimdir. Gavharshod begim Shohruh Mirzoning suyuqli xotini, Amir Temurning sevikli nabirasi bo'lmish Mirzo Ulug'bekning volidai muhtaramasi edilar (1379-1457). Oqila va tadbirkor bu ayol davlatni boshqarish ishlariga ham qatnashgan. Shohruh Mirzo ko'p vaqtini toat - ibodat qilish, kitob o'qishga sarflagan, shu bois davlat, saltanat va devon ishlarini qat'iyatli tadbirkor Gavharshod begim boshqargan. Gavharshod begim davrida Hirot Sharqning eng nufuzli shaharlaridan biriga aylangan. Hirot shahrida ikkita katta madrasa qurdirgan, tolibi-ilmga rahnamolik qilib, ularga homiylik qilganlar.

Temuriylar sulolasidan bo'lmish, Zahiriddin Muhammad Boburning qizi Gulbadan begim (1523-1603). Gulbadan begim Zahiriddin Muhammad Boburning Dildor begim deb nomlangan xotinidan tug'ilgan uchinchi qizidir. U o'z davrining oqila, donishmand ayollaridan biri bo'lgan. Gulbadan begim Bobur va Humoyun podshohning hayot tarzi to'g'risida «Humoyunnoma» asarini yozgan. Muallif asarda tarixiy manbalarda uchramaydigan Bobur podshoh xonadonining nozik jihatlarini, oilaviy sharoitlari to'y, aza bilan bog'liq udumlarini, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechaklar haqida ko'plab ma'lumotlarni bergan.

Hindistondagi Boburiylardan bo'lgan Avrangzebning qizi Zebiniso begim (1643-1721) shoir va ma'rifatparvar bo'lgan. Onasi Dilraso bonu Gulbadan begimning avlodlaridan bo'lgan. Zebiniso begim o'zbek, fors, arab tillarining sarfu-naxvini (morfologiya va sintaksis) yaxshi bilgan. Xusrav Dehlaviy, Navoiy, Bobur asarlarini sinchiklab o'rgangan. Uning ilm-ma'rifatga qo'shgan hissasi beqiyosdir. Bizgacha uning boy merosidan bir qismi yetib kelgan. Ba'zi bir asarlari qo'lyozmalari dunyoning ko'pgina kutubxonalarida shu jumladan, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutida ham saqlanadi.

Oliy ta'limdning pedagogika ta'lim sohasida tahsil olayotgan talaba-qizlarning, xususan 60110500 – Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talaba-qizlarning bo'lajak mutaxassislikni egallash bilan bir qatorda yuksak ma'naviy sifatga ega bo'lgan ayol timsolini o'zida mujassam eta oladigan va jamiyatda munosib mavqega ega bo'la oladigan masala bugungi kunda dolzarbdir. Bunda mamlakatimiz yoshlarini xususan, talaba-qizlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini takomillashtirishda temuriy malikalar ma'naviy merosidan foydalanishning zamonaviy usullarini qo'llash samarali hisoblanadi. "Umumiy pedagogika" fan dasturida berilgan "Sharq Uyg'onish davri (1-va 2-Renesans)da ta'lim-tarbiya rivoji" mavzusi asosida berilgan "Temuriylar davridagi uyg'onishning g'oyaviy omillari va temuriyzodalarning ta'lim-tarbiyaga qo'shgan hissasi" va "Qobusnoma", "Temur tuzuklari" "Boburnoma", "Xumoyunnoma" asrlarining pedagogik mazmuni" kabi mustaqil ishga doir mavzularda zamonaviy usullarni qo'llash imkoniyati mavjud.

Xususan, "Xonzodabegim" effekti deb nomlangan usul ham samarali hisoblanadi.

"Xonzodabegim" effekti.

Farg'ona viloyati hokimi temuriy Umarshayx Mirzoning qizi. Zahiriddin Muhammad Boburning opasi. Xonzoda begim o'zining aqli-droki va tadbirkorligi tufayli saroy ahli orasida yuksak hurmat va e'zozga sazovor bo'lgan Temuriy mlikalardan hisoblanadi.

1501-yida Bobur Samarqandda qamalda qolgan payt Xonzodabegim o'zini asir tushishi evaziga ukasi Boburning Qamaldan chiqib ketishiga yordam berib, jasorat ko'rsatadi. Talaba-qizlarga ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda "Xonzodabegim" effektidan foydalanish mumkin.

"Xonzodabegim" effekti orqali talaba-qizlar fe'l-atvorini, duny qarashini ijobiy tomonga o'zgartirish mumkin. Dars jarayonida "Xonzodabegim" effektini qo'llashda quyidagi texnikalardan foydalanish mumkin:

1. Badiiy asarlardan foydalanish. Badiiy asar orqali ta'sir etib, ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga ta'sir o'tkazish mumkin. Bunda talaba-qizlarga ta'lim-tarbiyaviy badiiy asarlardan foydalanish tavsiya etiladi. Kitob o'qish inson tasavvur olamini tozalovchi eng samarali jarayon hisoblanadi. Badiiy asar mutolaasi bilan shug'ullanayotgan talaba-qizlarda doimo ijobiy his-tuyg'ular mujassamligini kuzatish mumkin.

Namuna sifatida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" asaridan parcha keltiramiz:

"Hujraning ichi qorong'i bo'lmasa ham qoidaga binoan g'arb tomonidagi mehrobgga sham yoqib qo'yilgan edi. Kunduzgi yorug'lik qarshisida ko'zga zo'rg'a tashlanayotgan sham yog'dusi yon-veridagi gulgun naqshlarga tushib, elas-elas jilvalanardi.

Bu hammasi Boburda g'alati bir zavq uyg'otdi. U sham yonidagi to'q-qizil naqshlarni Xonzoda begimga ko'rsatib:

- Islimi gulxan shumi? - deb so'radi.

Xonzoda begim bir ukasiga, bir naqshga qaradi-yu, sho'x jilmaydi:

- Bir qoshiq qonimdan kechsangiz, ayturmen.

Bobur ham kulimsirab:

- Kechdim, aytingiz, - dedi.

Xonzoda begim o'ngga qayrilib, eshik tepasidagi qip-qizil naqshlarni ko'rsatdi.

- Islimi gulxan mana bu. Siz naqshi lolani bunga o'xshatmishsiz, amirzodam.

Xonzoda begim ko'rsatgan naqshlar haqiqatan qip-qizil olov tillarini eslatar, uning eshik tepasiga naqshlanishi ham bejiz emas edi. «Keluvchiga ergashgan balo-qazoni olov olib qoladi»,

degan qadimiy e'tiqod va kelin-kuyovni eshik oldiga yoqilgan olovdan aylantirib olib o'tish odatlari Boburning esiga tushdi. U opasiga tan bergan kabi qarab:

- Siz haqsiz, men sahv qilibmen, - dedi.

Shunda Qutlug' Nigor xonim gap qo'shdi:

- Bobur mirzoning sahlari uzrlilik. Chunki bu hujrada naqshi lola ham xuddi gulxandek yonib ko'rinur!

Onasining lutf qilib aytgan so'zlari Boburning hujradan olgan zavqini yana bir darajada oshirdi [2].

Talaba-qizlarning asardagi holatni anglashlari, tushunib yetishlari uchun ularga savollar beramiz:

1. "Islimi gulxan" nima? Bu narsa haqida oldin eshitganmisiz?

2. "Xonzoda begim bir ukasiga, bir naqshga qaradi" jumllaridan nimani tushundingiz?

3. "Keluvchiga ergashgan balo-qazoni olov olib qoladi" degan iboraga qanday munosabat bildirasiz?

4. Kelin-kuyovni eshik oldiga yoqilgan olovdan aylantirib olib o'tish odatlari hozirgi kunda ham ba'zi joylarda ishlatilayotganligini bilasizmi?

5. Boburning "men sahv qilibmen" degan javobini qanday tushundingiz?

6. Qutlug' Nigor xonimning matnda bildirgan fikrlari qanchalik o'rinli deb hisoblaysiz?

7. Keltirilgan parchadagi malikalarning o'zini tutishi, gap ohangi, mulozamatlariga qanday baho berasiz?

Talaba-qizlarning javoblari eshitilgach, ulardan matndagi uch shaxs – Xonzodabegim, Qutlug'nigor xonim va Bobur Mirzoning o'rtasidagi muloqot jarayoni qanday badiiy tasvirlanganligi, qanchalik darajada hayotiy haqiqat aks etganligi, ularning tabiatidagi qanday xislatlarni anglab olish mumkinligi borasida ham suhbatlashish mumkin.

Badiiy asar tahlili bilan ishlash talaba-qizlarning o'tmish malikalar hayoti, turmush tarzi, fe'l-atvorlari bilan tanishishning eng samarali usullaridan hisoblanadi. Talabalar asar asosida savol-javob, suhbat orqali temuriy malikalar bilan bog'liq voqealar, kechinmalar, hissiyotlarni ich-ichidan his qiladilar, ularning hayot tarzini tushunadilar, o'zlariga kerakli saboqni oladilar.

2. Mashhur ayol-qahramonlarni namuna qilib ko'rsatish. Mashhur ayol-qahramonlarni namuna qilib ko'rsatish orqali ularning ma'naviy-axloqiy qarashlariga ta'sir o'tkazish mumkin. Bu jarayonda badiiy asar bilan birga badiiy filmlardan ham foydalanish mumkin. Talaba-qizlar bilan ishlashda tarixiy qahramonlar, ular ko'rsatgan jasoratlar haqida suhbatlar o'tkazish, ular haqida qiziqarli voqealar va ma'lumotlar so'rash ijobiy natijalarni beradi.

Mashhur ayol-qahramonlarni namuna qilib ko'rsatishda vaqt, joy, holat muhim o'rin tutadi. Shu bois quyidagi ruknlar asosida ish olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Hozirgi hayotimizda biz bilan yonma-yon yashayotgan ayollarimizning faoliyatlari. Bunda respublikamizda, viloyatimizda, tuman yoki mahallamizda biz bilan yonma-yon yashayotgan qahramonlarimiz faoliyati namuna sifatida ko'rsatiladi. Masalan, S.Mirziyoyevaning yoshlarga, xotin-qizlarga ko'rsatayotgan yordamlarini, ta'lim-tarbiya, maktab sohasini yuksaltirishga qo'shayotgan hissasini ko'rsatib o'tishimiz mumkin.

Har bir talaba yashayotgan mahalla, qishloqlarda ham fidoyi, o'zgalar baxti uchun jon kuydirib yashayotgan xotin-qizlarimiz ko'plab topiladi. Ularning ish-faoliyati o'rganilib, tahlil qilinadi, ibrat bo'ladigan jihatlari talaba-qizlarimizga namuna sifatida taqdim etiladi.

2. Tarixda yashab o'tgan va bajargan ishlari, qahramonligi namuna bo'ladigan ayol-qahramonlarimizning erishgan muvaffaqiyatlari. Bunda Massagetlar qabilasi malikasi Tumarisni namuna qilib ko'rsatish mumkin.

Malika Tumarisning o'z eli, qabilasi tinchligi uchun ko'rsatgan qahramonligi, fidoiyligi, jasorati talaba-qizlarimiz uchun ibrat namunasi bo'lib qolishi kerak.

Hayotdagi mashhur ayol-shaxslarni namuna qilib ko'rsatish asosida ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga ta'sir o'tkazish mumkin. Bu jarayonni topshiriq-vazifa sifatida bajarish mumkin. Hozirgi kunda mahalla, yaqin qarindoshlar orasida obro'li, biror sohada muvaffaqiyatga erishgan shaxslar haqida ma'lumot to'plash topshirig'i beriladi va natijalar suhbat asosida olib boriladi.

3. Hadis, pand-nasihatlardan foydalanish. Hadis, pand-nasihatlardan foydalanish orqali ma'naviy-axloqiy qadriyatlariga ta'sir o'tkazish mumkin. Hadislar, pand-nasihat tarzidagi hikmatlarda juda katta hayotiy tajribalar mujassamlangan bo'lib, ularning ma'nosini tahlil qilish, hayotga bog'lab tushuntirish, talaba-qizlarning hayot haqida, maqsadlarga erishishda qanday yo'l tutishlari borasida ijobiy tushunchalar hosil qiladi.

Tarixda Ikrima nomli buyuk sarkarda bo'lib, Makka fath qilinganda islomga qilgan qarshiligi va Payg'ambarga yetkazgan aziyati sababli, u "bugun albatta o'limga hukm qilinsam kerak", degan xayolda Makkadan qochib, uzoqroq yerlarga ketadi. Shunda Ikrimaning ayoli islomni qabul qiladi va Payg'ambar sollallohu alayhi vasallam huzurlariga kelib: "Ey Allohning mahbubi, erimga omonlik bering, toki u shundan ta'sirlanib islomni qabul qilsin", deydi.

Muhammad alayhissalom unga omonlik beradi. Manbalarda kelishicha, Ikrima qayiqqa o'tirib daryoning narigi sohiliga o'tib ketayotganida ayoli bundan xabar topib, u ham bir tezroq yuradigan kemaga o'tirib, eriga yetib oladi va erini olib ortiga qaytadi. Ikrima Makkaga kelgandan keyin islomni qabul qilib, Ikrima roziyallohu anhuga aylanadi. Keyinchalik u musulmonlarning yetakchi sarkardasi bo'ldi.

Bu yerda muvaffaqiyatga erishgan jufti-halol qiyofasidagi ayol jasorati namoyon bo'lmoqda.

"Xonzodabegim" effektining oliy ta'limda o'rgatiladigan dars jarayonida foydalanish ularning shijoatli, qat'iy, maqsadi tomon intiluvchan, jasoratli bo'lib tarbiyalanishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda Amir Temur va temuriylar davri vatanimiz xalqlarining taqdirida, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan alohida bir tarixiy bosqichdir desak yanglishmaymiz. Zero, ajdodlar merosi, bizning jamiyatimiz ma'naviy, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishidan dalolatdir.

Milliy pedagogikamiz tarixida Amir Temur va temuriylarning o'rni beqiyos. Chunki, bu davrda markazlashgan davlatning tashkil topishi ilm-fan, madaniyat, qurilish-obodonchilik ishlarining rivojlanishiga zamin yaratdi.

Masalaning yana bir muhim jihati shundaki, qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarda temuriy shahzoda va malikalarga berilgan ta'lim-tarbiya natijasini e'tirof etish va shu asosda talaba-qizlar ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Tursunova M. Madrasa barpo etgan malikalar. – Toshkent: Zilol buloq nashriyoti, 2019. - 108 b.
2. Pirmqul Qodirov. Yulduzli tunlar. Roman. www.ziyouz.com kutubxonasi. 304 b. 44-bet.
3. Ibraimov X., Quronov M. Umumiy pedagogika. Darslik. – T.: “Sahhof”, 2023, 416 b
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik – T.: “Sano-standart”, 2017.
5. Hasanboyeva O., Hasanboyev J., Homidov X. Pedagogika tarixi – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2004
6. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi – Toshkent: “Istiglol” nashriyoti, 2005.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/5 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).